



Xotin-qizlar uchun imtiyozlar
Qonunchiligimizda ayollar uchun qator imtiyoz va kafolatlar belgilangan.

2-betda o'qing ➤



"To'maris izdoshlari" test sinovisiz o'qishga kiradi

3-betda o'qing ➤

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
7-MART
SESHANBA

No 09 (1369)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



Jahongir AHMEDOV,
kinorejssyor

Hamma narsa o'zgardi.
Zamonlar o'zgardi, dunyo
o'zgardi. Faqat Ona mehri qoldi
o'zgarmagan...

Baxt nima?

- Yigirma yil ortga qaytib qolsangiz?
- Onamni vaqtida davolatishni boshlardim.
- Kimlarga havas qilasisz?
- Onasi hayotlarga.
- Baxt nima?
- Baxtingni onang ko'rishi.
- Eng yoqimli maqtov?
- Onangga o'xshaysan, – deysingani.
- Eng og'ir tanqid?
- Onang nima degan bo'lardi?! – degan savol.
- Farzandlaringiz uchun eng katta sovg'angiz?
- Ularning onalarini asrash.
- Bolaligingizni sog'inishingiz uchun uch sabab?
- Mo'jizaga ishonar edim... Onam hayot edi...
- Yana bir sabab?
- Onam hayot edi...



Yorbek ISKANDAROV,
"Inson va qonun"
mxbiri

**Ulug'siz,
mukarramsiz,
sizga ta'zim,
aziz ayollar!**

Bugun bizni avval vujudida, so'ngra bag'rida ko'z qorachig'idek asrab-avaylagan, necha kunlaru oylarni bedor o'tkazib ulg'aytirgan, oh tortgan damlarimizda boshimizda parvona bo'lgan, o'zini olov domiga qo'yib, shirindan-shirin kulchalarni qo'limizga tutqazib suyungan, yutuqlarimizdan quvonib, g'am-tashvishlarimizni aritgan, mustaqil hayot sari kuzatib, ortimizdan har kuni yo'limizga mushtok tikilib, sog'inchidan ko'z yoshlarini pinhona to'kkan – **onalarimizning bayrami.**

Bugun biz bilan doim g'ururlandigan, gohida yilda bir bor holidan xabar olmasak-da, mening suyan-

gan akam, mehribon ukam bor, deya shodlanadigan, gar borib qolsak, yaxshi ko'rgan taomlarimizni tayyorlab berib, atrofimizda parvona bo'lgan – **opa-singillarimizning bayrami.**

Bugun hayotimizning mazmuni, farzandlarimizning mehriboni, oilalarimizning farishtasi bo'lgan – **turmush o'rtog'larimizning bayrami.**

Bugun beg'ubor va eng mehribonlarimiz, bizni o'zining dunyodagi eng katta suyanchi deb bilganlarimiz, xonadonlarimizni gullarga burkagan, baraka va fayz yog'dirgan – **qizlarimizning bayrami.**

Bugun biz bilan yelkama-elka xizmat qilayotgan, ishxonalarimizning

sarishtalari, har ishda ulkan zafarlarni mahv etayotgan – **jamoadosh ayollarimizning bayrami.**

Ha, sha'ningizga qanchalik tabriklar aytmaylik, kam. Sizlar aytganlarimizdan-da ko'prog'iga, ulug'laganlarimizdan-da ulug'rog'iga munosibsizlar. Shoir aytganidek:

**Dunyoga keltirding – onamsan,
Men uchun tengi yo'q olamsan.
Yoritding hamisha yo'limni,
Sevikli qizimsan – bolamsan.
Bormikan sendayin iboli,
O'zbekning farishta ayoli...**

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz va mo'tabar onaxonlar, sevimli opa-singillar!

2 BILASIZMI?

XOTIN-QIZLAR
UCHUN IMTIYOZLAR

Qonunchiligimizda ayollar uchun qator imtiyoz
va kafolatlar belgilangan.

Maqsud MUSTAFOYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi mas'ul xodimi

**Bola parvarishlayotgan ayollarga ta'tillar**

Mehnat kodeksining 150-moddasiga asosan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilayotgan ayollarga hamda 12 yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolani tarbiyalayotgan ayollarga – har yili 14 kalendar kunga qadar ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi.

**Xizmat safariga yuborilmaydi**

Mehnat kodeksining 228-moddasiga ko'ra, homilador ayollarni va 14 yoshga to'lmagan bolasi (16 yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi) bor ayollarni ularning rozilgisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

**Qo'shimcha ta'til beriladi**

Mehnat kodeksining 232-moddasiga asosan, o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga har yili uch ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

**Dastlabki sinov belgilanmaydi**

Mehnat kodeksining 84-moddasiga muvofiq, homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi.

**Rahbar tashabbusi bilan bekor qilinmaydi**

Mehnat kodeksining 237-moddasiga ko'ra esa, homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**Ayrim magistr ayollarning ham kontrakti to'lab beriladi**

Davlat OTMLarining magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan va o'qiyotgan xotin-qizlarga bazaviy to'lov-kontrakt (stipendiyasiz) summalari to'liq to'lab beriladi.

**Mikroqarzlilar beriladi**

Ayollarga tadbirkorlik bilan shug'ullanish borasida ham imtiyozlar berilgan. Jumladan, Prezidentning 2021-yil 5-martdagi qaroriga asosan, tadbirkorlik tashabbusiga ega xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil qilish uchun 33 million so'mgacha bo'lgan miqdorda mikroqarzlilar beriladi. Bunda kreditlar 3 yilgacha muddat va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada ajratiladi.

ISH STAJI 20 YIL BO'LSA, PENSIYA OLISHI MUMKIN

Ayollarga pensiyaga chiqishda ham bir qator kafolatlar belgilangan. Jumladan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunga ko'ra, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan ayollar 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

6 OYGACHA IMTIYOZLI KREDIT BERILADI


Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan, "Ayollar daftari"ga kiritilgan va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xotin-qizlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha (hozirgi kunda 45 million so'mgacha) miqdorda kreditlar beriladi. Bunda, kreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi.

IJARA HUQUQI ASOSIDA UY-JOYGA JOYLASHTIRILADI

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan, uy-joyga muhtoj xotin-qizlar ijtimoiy uy-joylarga ijara huquqi asosida besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan joylashtiriladi. Bunda, ijara kompensatsiyasi ijara shartnomasiga asosan ijara to'lovining 50 foizi miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining ikki yarim baravaridan oshmagan qismiga to'lanadi.


TAQDIRLANISHI MUMKIN

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-apreldagi qaroriga asosan, jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda munosib hissa qo'shgan xotin-qizlar "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi. Ko'krak nishoni bilan mukofotlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari (bugungi kunda 1 million 200 ming so'm) miqdorida biryo'la to'lanadigan pul mukofoti oladi.

**Kontrakt puli to'lab beriladi**

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi farmoniga muvofiq, har yili bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga qabul qilingan, ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari bo'lgan talaba xotin-qizlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hisobidan o'qitish tartibi joriy etilgan. Bunda kontrakt summasi quyidagilar uchun qoplab beriladi:

- ☒ kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar. Bunda kam ta'minlangan oila deganda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali belgilangan tartibda kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oila tushuniladi;
- ☒ ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, ya'ni yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlar;
- ☒ ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, ya'ni boquvchisini yo'qotgan (turmush o'rtog'i vafot etgan), voyaga yetmagan farzandlarni yolg'iz tarbiyalayotgan ehtiyojmand ayollar.



BUXORO

HARBIY HISOB STOLI BOSHLIQLARINING HAQI UNDIRILDI



SHOFIRKON tuman adliya bo'limi tomonidan tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tizimidagi harbiy hisob stol boshlig'i E. Ashurov va boshqalarning ish beruvchi xatti-harakatidan, ya'ni ish haqlari kam to'lanayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati monitoring yo'li bilan o'rganilganda, bir qator qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgani aniqlandi.

Jumladan, 13 nafar xodim harbiy hisob stoli boshlig'i lavozimiga tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limining 2021-yildagi buyrug'i bilan tayinlangan bo'lishiga qaramasdan, ish beruvchi va xodimlar o'rtasida ta'til vaqtini boshqa muddatga ko'chirish haqida kelishuv bo'lmasa-da, ularning 9 nafariga 2021 va 2022-yillar uchun haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tili berilmagan aniqlandi. Bundan tashqari, nomlari ko'rsatilgan 13 nafar harbiy hisob stoli boshlig'iga bir oylik lavozim maoshi miqdorida moddiy yordam ham berilmagan.

Vaholanki, Prezidentimizning 2022-yil 18-oktabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ilovasi bilan tasdiqlangan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash jamg'armasi tarkibi" 6-bandiga ko'ra "Mahalla" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan bir oylik lavozim maoshi miqdorida moddiy

yordam to'lanishi belgilangan.


Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 20-maydagi "Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni 1-bandiga muvofiq 2022-yil 1-iyundan boshlab budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 12 foizga oshirilishi qayd etilgan bo'lsa-da, ularning ish haqi 12 foizga 2022-yil iyun oyidan emas, balki 2022-yilning avgust oyidan oshirilgan holda hisoblab to'langan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari nomiga taqdimnoma kiritildi.

Natijada, harbiy hisob stol boshliqlariga to'lanmagan 10 million 929 ming 449 so'm yillik mehnat ta'tillari uchun haq, 2 million 272 ming 711 so'm rag'batlantirish puli va 3 million 609 ming 506 so'm, 2022-yil iyun-iyul oylarida kam to'langan ish haqi uchun jami 16 million 811 ming 666 so'm to'lov to'lanishi ta'minlandi.

Zohid HALIMOV,

Shofirkon tuman adliya bo'limi boshlig'i



SURXONDARYO

"TO'MARIS IZDOSHLARI" TEST SINOVISIZ O'QISHGA KIRADI

2023-YIL 1-iyundan yoshi 18 dan kichik va 30 dan katta bo'lmagan, umumiy o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotli, birlashtirilgan hududda doimiy yashovchi hamda muhojirga kirishuvchan va tashkilotchilik qobiliyatiga ega xotin-qizlarni ko'ngilli asosda jalb qilish orqali "To'maris izdoshlari" jamoaviy guruhlari faoliyati tashkil etiladi.

Mazkur guruhlarining asosiy vazifalaridan biri o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qiyotgan qizlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan hamda ularning huquq va manfaatlarini buzilishi bilan bog'liq masalalarni aniqlashda ko'maklashish hisoblanadi.

Guruhlar respublikaning barcha tuman (shahar)larida 2 nafardan (kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan tumanlarda 3 nafardan) ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzurida shakllantiriladi.

Guruh a'zolari 1 yil davomida o'qish va ish jarayoniga salbiy ta'sir etmagan holda umumiy 360 soat vaqt mo-


baynida faoliyat olib boradi.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga munosib hissa qo'shgan "To'maris izdoshlari" jamoaviy guruhlari a'zolariga Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'ining tavsiyanomasiga asosan huquq-tartibot organlarining OTMga saralashining barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng yakka tartibdagi suhbat (test sinovlarisiz) kvota asosida o'qishga kirish huquqi beriladi.

Tavsiyanoma berilgan nomzodlar soni belgilangan kvotadan ko'p bo'lgan taqdirda, ularni o'qishga qabul qilish tanlov natijalari bo'yicha to'plangan ballardan kelib chiqib, ajratilgan qabul kvotalari doirasida ketma-ketlik tartibida taqsimlangan holda amalga oshiriladi.

Utkir ARIPOV,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



TOSHKENT

SERGI tumanidagi 68, 317-sonli umumta'lim maktablarida maktab shifokori lavozimida ishlayotgan M. Mirtalipova 2022-yil 1-iyulda I malaka toifasi olgan, biroq unga ustama to'lab berilmagan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



MAKTAB SHIFOKORIGA NOTO'G'RI USTAMA TO'LANGAN


Tuman tibbiyot birlashmasi rahbarining 2023-yil 12-yanvardagi javob xatiga ko'ra, M. Mirtalipova haqiqatan ham TTB markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasida 68, 317-sonli umumta'lim maktablarida pediater shifokor lavozimida ishlayotgani, unga shu kunga qadar hisob-kitob bo'limi tomonidan II toifaga binoan haq to'langani ma'lum bo'ldi.

Aniqlanishicha, M. Mirtalipovaga Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasining 2022-yil 1-iyuldagi buyrug'iga asosan berilgan guvohnomaga ko'ra, I malaka toifasi berilganiga qaramasdan, shu kunga qadar fuqaroga II malaka toifasi uchun haq to'lab kelinmagan. Vaholanki, unga I malaka toifasiga mos miqdorda haq to'lanishi lozim edi.

O'rganish yakuniga ko'ra, xodimning buzilgan huquqlari tiklanib, tegishli malaka toifasiga mos 7 million 283 ming 498 so'm ish haqqi to'lab berildi.

Jaloliddin HAYDAROV,

Sergeli tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



TOSHKENT

PENSIYA JAMG'ARMASIGA MAJBURIYAT YUKLATILDI



FUQARO E. Kuryayeva Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limi tomonidan pensiya tayinlashda hisobga olinmagan davrlarni umumiy ish stajiga qo'shib, qayta hisoblashda yordam berishni so'rab, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Aniqlanishicha, pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2020-yil 27-noyabrdagi qarorida E. Kuryayevaning 1994-yil 12-iyundan 1999-yil 20-iyulgacha "Spets-sistem servis" tashkilotida, 1999-yil 24-iyuldan 2002-yil 28-oktabrgacha "Maxsusta'mirenergomontaj" korxonasi ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etmagani uchun umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olinmagani ko'rsatilgan. Fuqaro E. Kuryayevaning hisobga olinmagan ish staji davrlari mehnat daftarchasida qayd etilgan.

Mehnat kodeksining 81-moddasida hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomn-

ing 56-bandiga asosan mehnat daftarchasi (elektron mehnat daftarchasi) ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat hisoblanishi ko'rsatilgan.

Murojaat yuzasidan fuqaro manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga ariza kiritildi. Sudning 2023-yil 8-fevraldagi hal qiluv qarori bilan pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2020-yil 27-noyabrdagi E. Kuryayevaga tegishli qarori haqiqiy emas, deb topilib, uning amalda ishlagan, biroq pensiya tayinlashda hisobga olinmagan davrlarini umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olish yuzasidan pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limiga majburiyat yuklatildi.

Doston OCHILOV,

Chilonzor tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

4 "MADAD" JAVOB BERADI

O'QITUVCHILAR
YAGONA
FORMA KIIYISHI
SHARTMI?

– **Maktab direktori o'qituvchilarni yagona forma kiyish shart, deb majburlashi qonunan to'g'rimi? Aslida o'qituvchilarning yoshi, oilaviy sharoiti inobatga olinishi kerak emasmi?**

– Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2022-yil 28-iyuldagi 246-son buyrug'i bilan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ichki tartib va odoq-axloq qoidalarini" yangi tahrirda tasdiqlangan. Uning 14-bandida maktab o'qituvchilarining kiyinishiga oid qoidalar belgilangan. Bunda muassasa ustavi bilan ta'lim muassasasi rahbariyati va pedagog xodimlari formasining rangi va qo'shimcha belgilariga mazkur nizom talablaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Mazkur qoidalarda bir xillik haqida mazmun yo'q. Shunday ekan, direktorning bu haqdagi talabini noto'g'ri deb hisoblash mumkin.



Savollarga "Madad" NNT
yetakchi mutaxassisi
Shaxzod MAJIDOV
javob berdi

SUBSIDIYA
QANDAY
OLINADI?

– Turmush o'rtog'im bilan ikkalamiz ham ishsizmiz. Hovlimizda davlat subsidiyasi asosida issiqxona qurmoqchi edik. Issiqxona qurish uchun subsidiya qanday olinadi? Shu masalada qaysi davlat organiga murojaat qilishimiz kerak?

– Bandlik va va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizomning 21-band, Prezidentimizning 2020-yil 18-maydagi "Tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, subsidiyalar aholi bandligiga ko'maklashish markazi, yetkazib beruvchi tashkilotlar va tomorqa yer egalari o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha ajratilishi belgilangan. Bunda, nizomning 36-bandiga ko'ra, ishsiz, kam ta'minlangan va kambag'al oilalar a'zosi bo'lgan tomorqa yer egasi yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar yoxud sug'orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratishni so'rab tegishli hududdagi Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga murojaat qilishi mumkin.

DIREKTORNING
TALABI
TO'G'RIMI?

– Yaqinda dekret ta'lim tugab, ishga qaytganimda, maktab direktori mening o'rnimga boshqa xodim olganini aytdi. Men bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilmoqchi ekanini ta'kidladi. Aytinch, maktab direktorining talabi to'g'rimi?

– Ushbu vaziyatda mehnat qonunchiligi ish beruvchi tomonidan qo'pol tarzda buzilgan. Amaldagi Mehnat kodeksining 233, 234-moddalariga muvofiq, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolani parvarishlash ta'tillari davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolani parvarishlash ta'tillariga ketgan xodimning o'rniga o'rindoshlik asosida boshqa xodim olib turilishi, agarda homiladorlik hamda tug'ish ta'tilidan xodim qaytsa, xodimning asosiy ish joyi bo'shatib berilishi lozim. Shunday ekan, Sizdagi vaziyatda ham dekret ta'tilidan qaytgan vaqtinizda asosiy ish joyingiz qaytarib berilishi lozim. Ushbu masala yuzasidan ariza tartibida tuman adliya bo'limiga yoki prokuratura organiga murojaat qilishingiz lozim.

– **MAKTABDA o'qituvchi bo'lib ishlayman. Yaqinda malaka oshirish kursiga yuborildim. Malaka oshirish kursiga borgan davrim uchun xizmat safari to'lovi to'lanishi bo'yicha maktab direktoriga murojaat qildim. Murojaatim rad qilindi. Shu masalada huquqiy maslahat bersangiz?**

MUROJAATIM
RAD ETILDI

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomning 2-bandiga ko'ra, tashkilot rahbarining buyrug'iga (qarori, farmoyishiga) asosan xodimning o'zining doimiy ish joyidan boshqa joyga xizmat topshirig'ini bajarish uchun ma'lum bir muddatga yuborilishi xizmat safari hisoblanadi. E'tibor bering! Xizmat safari ish beruvchining topshirig'i bilan xodimning boshqa hududda muayyan topshiriqni bajarishi hisoblanadi. Malaka oshirish esa xizmat safari hisoblanmaydi.

Mazkur qonuniy asosga ko'ra, sizga malaka oshirish davrida xizmat safari to'lovlar to'lanmaydi. Ammo Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomning 130-bandiga ko'ra, ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlariga ishdan ajralgan holda malaka oshirishga yuborilgan tinglovchilarning o'qishi davrida asosiy ish joyi bo'yicha lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanib qolinishi belgilangan. Shunga ko'ra, sizning malaka oshirish davrida bo'lgan vaqtinizda sizga o'rtacha oylik ish haqingiz to'lab beriladi.

IJARA TO'LOVI
TO'LAB
BERILADIMI?

– **Tibbiyot oliygohi talabasi-man. Yaqinda talabalarning ijara haqlari davlat tomonidan to'lab berilishi haqida eshitib qoldim. Iltimos, shu haqda ma'lumot bersangiz.**

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlari qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi, bunda ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari, qolgan hududlarda – bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmasligi

belgilab qo'yilgan. E'tibor bering! Siz oylik ijara to'lovining bir qismini olish maqsadida anketa-arizani ikki nusxada to'ldirib, o'zingiz ta'lim olayotgan fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinborsari yoki oliy ta'lim muassasasining talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlari muvofiqlashtiruvchi bo'limiga topshirishingiz lozim. Mas'ullar taqdim etgan talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bir kun muddatda komissiya tomonidan o'rganib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi. Komissiyaning ijara to'lovining bir qismini to'lab berish yoki ijara to'lovining bir qismini to'lab berishni rad etish to'g'risidagi qarori asoslantirilgan ravishda oliy ta'lim muassasasining tegishli e'lonlar taxtalari, rasmiy saytlarida aks ettirilishi komissiya kotibi tomonidan ta'minlanadi.

Kuni kecha O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan jurnalist ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijodiy salohiyatini namoyon qilishiga ko'maklashish, erishgan yutuqlarini e'tirof etish va ularni rag'batlantirish maqsadida e'lon qilingan "Atirgul" tanlovi g'oliblari taqdirlandi.



"Atirgul" muborak bo'lsin, GULBAHOR!



"Insonga e'tibor mavzusi yoritilgan eng yaxshi material uchun" nominatsiyasi g'olibligi hamkasbimiz – Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazining "Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati muxbiri Gulbahor Ortiqxo'jayevaga nasib etdi.

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi hamkasbimizni ijodiy yutug'i bilan chin dildan muborakbod etadi!

ISHLAB chiqaruvchilar reklamada mashhur shaxslar va yosh bolalar xizmatlaridan tobora ko'proq foydalanishmoqda. Qonunchilikda reklamada yosh bolalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari mavjud.

Bolalar ishtirok etgan reklamadagi taqiqlar

Voyaga yetmaganlar ishtirok etgan reklamalarda quyidagilar taqiqlanadi:

- ❑ bolalar iste'mol qilishi taqiqlangan tovarlarni iste'mol qilayotgan yoki ulardan foydalanayotgan bolalarning tasvirlaridan foydalanish;
- ❑ bolaning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi xatti-harakatlarni sodir etishga undovchi holatlarni aks ettirishda bolalardan foydalanish;
- ❑ bolalarni tovarlarni olishga da'vat qilish yoki reklama qilinayotgan tovarlarni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga undash;
- ❑ haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalanish;
- ❑ ota-onalar va tarbiyachilarni obro'sizlantirish, voyaga yetmaganlarning ularga bo'lgan ishonchiga putur yetkazish;
- ❑ bolalar uchun taqiqlangan tovarlarni ular uchun mo'ljallangan telekanallarda, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda reklama qilish.

■ BILASIZMI?



Reklama beruvchilar yuqoridagi talablarga rioya etmasa, ularga moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi. Reklama to'g'risidagi qonunchilikni buzish ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ya'ni, fuqarolar va mansabdor shaxslar tomonidan noto'g'ri reklama berganlik, tashqi reklamani joylashtirish tartibiga rioya qilmaganlik yoki aksilreklama berishdan bosh tortganlik, xuddi shuningdek, reklama qilinishi qonunchilik bilan taqiqlangan mahsulotni reklama qilganlik – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish – bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Sherzod ABDULLAYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

UZLUKSIZ TA'LIMNING MUHIM BOSQICHI

KEYINGI yillarda mamlakatimizda fuqarolarning ta'lim olish huquqi, shu jumladan, professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida yangi professional ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlari uchun qator ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimizning 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Toshkent davlat yuridik universiteti huzurida 14 ta yuridik texnikum tashkil etildi. Bu esa respublikamiz hududidagi yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan yuridik texnikumlarga qabul parametrlari yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni monitoring qilish va prognozlashtirish elektron platformasini yaratgan holda davlat hokimiyati va boshqaruv organi, turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlar, shu jumladan

tadbirkorlik subyektlarida joriy va istiqboldagi yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olib, har bir hudud, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar kesimida tahlil qilish asosida shakllantirilishi belgilandi. Shuningdek, buyurtmachi tashkilot yuridik texnikumlarda kadrlarni maqsadli tayyorlash uchun to'lovni o'quvchilar o'qishni tugatganidan so'ng, shartnomada belgilanadigan muddat davomida tashkilot-buyurtmachida uzluksiz ishlash majburiyatini qabul qilgan holda amalga oshirishga haqli ekanligi ham belgilandi.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish hamda yuridik texnikumlarda qo'shma fakultetlar tashkil etish belgilanganligi xalqaro standartlar asosida yetuk yuridik kadrlar tayyorlash samaradorligi

yanada oshirilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, yuridik sohada professional kadrlarni tayyorlashni xalqaro standartlarga mos darajaga yetkazish maqsadida yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimi joriy etildi. Adliya vazirligi huzuridagi yuridik texnikumlarda bugungi kunda tahsil olayotgan o'quvchilarning ikki ming nafardan ortig'i sirtqi ta'lim yo'nalishida o'qiydi. Sirtqi ta'lim o'quvchilarga amaliyot bilan ta'limni uyg'un olib borish uchun yaxshi bir imkoniyat hisoblanadi.

Yuridik texnikumlarning o'quvchilari va pedagog kadrlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishida Adliya vazirligi hamda Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan moddiy, uslubiy hamda metodik ko'maklashib kelinmoqda.

Yuridik texnikumlarda o'tkazilayotgan "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi", "Huquqiy fanlar olimpiadasi", "Eng iqtidorli o'quvchi", "Jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessi" tanlovlari o'qituvchi va o'quvchilarning o'z bilimlarini sinab ko'rishi, o'z ustida ishlashlariga sababchi bo'lmoqda.

Yuridik texnikum pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirish tizimining o'qitish shakllari

va uslublarini takomillashtirish maqsadida tinglovchilar uchun ishdan ajralmagan holda dasturlarni masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'lashtirish imkoniyati yaratilgan. Ularning darsdan bo'sh vaqtlarida amaliyot bilan bog'lash maqsadida vazirlik va hududiy adliya organlari hamda huquq-tartibot organlarida stajirovka o'tash tartibini joriy etish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Eng muhimi, TDYda ishlab kelayotgan xorijiy mutaxassislar, o'qituvchi va olimlarni barcha yuridik texnikumlarning o'quv jarayoniga jalb etish, professional ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha zarur choralar ko'rilmog'da.

Bu esa professional ta'lim tizimida shiddat bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlar fuqarolarning ta'lim olishga, uzluksiz ta'lim jarayoniga qamrab olishga, ularning yetuk mutaxassis sifatida davlatga, jamiyatga hamda oilasiga kerakli kadrlar bo'lishiga qaratilgan islohotlar ekanligining yaqqol dalilidir.

Zarifa BOYMURODOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti Uzluksiz ta'lim boshqarmasi uslubchisi

6 MOHIYAT

FIFA futbol agentlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha 30 yillik tarixga ega. Biroq so'nggi yillarda futbol vositachilari tomonidan o'z xizmatlari uchun yuqori komission to'lovlarning talab etilishi holatlari ko'pchilikning, shu jumladan futbol klublari, assotsiatsiyalar, hatto FIFAni ham xavotirlanishga majbur qildi. Yakunda esa FIFA agentlar, klublar, futbolchilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi lozimligini chuqur anglab yetdi.



FUTBOL AGENTLARI MAQOMI

mamlakatimizda buning huquqiy asoslari yaratildi

Futbol sohasida manfaatdor tashkilotlar, shaxslar hamda sohadagi bir qancha ekspertlar o'rtasida uzoq davom etgan bahs-munozaralardan so'ng, 2022-yil 16-dekabrda FIFA Ijroiya Qo'mitasi tomonidan yangi futbol agentlari Reglamenti ma'qullangandi. Qolaversa, shartnoma barqarorligini mustahkamlash, transfer tizimining yaxlitligini himoya qilish va ko'proq moliyaviy shaffoflikka erishish maqsadida 2023-yil 9-yanvarda yangi Futbol agentlari faoliyati to'g'risidagi Reglament rasman kuchga kirdi. FIFA agentlar reglamenti amalga kiritilishi munosabati bilan a'zo assotsiatsiyalarda ham agentlik litsenziyasi uchun imtihonlar o'tkazilishi belgilandi. Endilikda, milliy assotsiatsiya yurisdiksiyasi doirasida mahalliy talabgorlar FIFA agentlari bo'lish uchun litsenziya imtihonlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mullaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga muvofiq, salohiyati yuqori futbolchilarni professional darajada tayyorlash, xorijiy davlatlarning nufuzli futbol klublarida professional faoliyat olib borishini ta'minlash, shuningdek, futbolchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida futbol bo'yicha agentlar (vositachilar)ning faoliyatini tartibga solish va ularni akkreditatsiyadan o'tkazish vakolati O'zbekiston futbol assotsiatsiyasiga yuklangan. Shu bois, assotsiatsiya tomonidan Futbol agentlari faoliyati to'g'risida Reglament ishlab chiqildi. Joriy yilning 9-yanvaridan boshlab futbol agentlari bo'lishga talabgorlar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasiga FIFA agent platformasiga o'z arizalarini

yuborishlari mumkin. Ya'ni, 2023-yil 19-aprelda o'tkaziladigan futbol agentlari imtihoni uchun 2023-yil 9-yanvardan 15-martgacha, 2023-yil 30-sentabrda bo'lib o'tadigan imtihon uchun 2023-yil 1-maydan 31-iyulgacha ariza qabul qilinadi. Yuqoridagi Reglamentning 5-moddasiga ko'ra, futbol agentligiga da'vogarlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

a) litsenziya olish uchun ariza berishda (va keyinchalik, shu jumladan litsenziya olgandan keyin):

■ o'z arizasida hech qanday yolg'on, chalg'ituvchi yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar berish mumkin emas;

■ uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, korrupsiya, poraxo'rlik, pul yuvish, soliqlar to'lashdan bo'yin tovlash, firibgarlik, o'yinlarni manipulyatsiya qilish, mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish, fidutsiar majburiyatlarini buzish, hujjatlarni qalbakiyashtirish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, jinsiy zo'ravonlik, zo'ravonlik jinoyatlari, ta'qiblar, ekspluatatsiya yoki bolalar yoki odam savdosi bilan bog'liq masalalar bo'yicha hech qachon jinoiy javobgarlikka tortilmagan;

■ axloq va kasbiy xulq-atvoriga oid qoidalarga rioya qilmagani uchun hech qachon ikki yil yoki undan ko'proq muddatga diskvalifikatsiya qilinmagan yoki faoliyati biron bir regulyator yoki sport boshqaruv organi tomonidan to'xtatib qo'yilmagan;

■ FIFA, konfederatsiya, a'zo assotsiatsiyaning, liga, klub, yoki ligalar manfaatlarini himoya qiluvchi organ yoki bunday tashkilotlar va muassasalar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan har qanday tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi bo'lmashligi; yagona istisno – ariza beruvchi futbol agentlari manfaatlarini ifoda etuvchi FIFA organi, konfederatsiya yoki a'zo assotsiatsiyasiga tayinlangan yoki saylangan holat;

■ shaxsan, ham o'z agentligi orqali ham klub, akademiya, yoki ligaga nisbatan biron manfaatga ega bo'lmashligi kerak.

b) litsenziya olish uchun ariza berishdan oldingi yigirma to'rt oy ichida unda hech qachon talab qilinadigan litsenziyasiz futbol agentlari xizmatlarini ko'rsatishi aniqlanmagan;

s) litsenziya olish uchun ariza berishdan besh yil oldin (va undan keyin, shu jumladan litsenziya olgandan keyin):

■ hech qachon shaxsan bankrot deb e'lon qilinmagan yoki bankrotlik to'g'risida ariza bergan, yoki tugatilgan biznesning aksiyador, direktor yoki asosiy xodimi bo'lmagan;

d) litsenziya olish uchun ariza berishdan 12 oy oldin (va undan keyin, shu jumladan litsenziya olgandan keyin):

■ pul mablag'larini yutib olish maqsadida sport tadbirining natijalariga pul tikish amalga oshiriladigan sport do'larini vositachilik qilish, tashkil etish yoki o'tkazish bilan shug'ullanadigan biron bir yuridik shaxs, kompaniya yoki tashkilotga nisbatan manfaatlari bo'lmashligi lozim.

Imtihon topshirish uchun tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lish talabi yo'q. Nomzodning kasbiga asoslangan imtiyozlar ham berilmaydi. Imtihonlar ingliz, fransuz va ispan tillarida o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi Futbol agentlari faoliyati to'g'risidagi Reglament O'zbekistonda soha faoliyatini huquqiy jihatdan qamrab olinishida hamda agentlar faoliyatini litsenziyalash va ular xizmatiga komission to'lovlarni amalga oshirishda shaffof tizim yaratilishida muhim rol o'ynaydi.

Sherzod XOJIMUROTOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro xususiy huquq kafedrasida
katta o'qituvchisi, O'zbekiston futbol
assotsiatsiyasi yuriskonsulti



E'LONLAR

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrda 807-son qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 28-fevraldagi 25-um-son buyrug'iga asosan Xalbayev Dosmurot Islakovichga boshqarma tomonidan 2022-yil 6-dekabrda berilgan SI 000146 sonli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

"Kafolat" advokatlar hay'ati advokati

Ubaydullayev G'ayratxon Axrorovichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan GZ 000046-sonli advokatlik litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi 2023-yil 23-fevraldan tiklandi.

"Kafolat" advokatlar hay'ati advokati Murodov Shaxzod Karim o'g'lining ixtisosligi o'zgarishiga sababli, unga "Fuqarolik va iqtisodiy" hamda "Ma'muriy jinoiy" sud ishlarini yuritish ixtisosliklari bo'yicha 2023-yil 24-fevralda 173-sonli advokatlik guvohnomasi berildi.

**“ Mehrla mehr
yo‘li ochilur,
kina kin yo‘li.**

Bedil

KUZ. Havo namxush. Quyosh ham go‘yo sovuqdan qochib yashiringanday qovog‘i soliq. To‘rtga besh metrlik xona devori bo‘ylab qo‘shqavat sim krovatlar, o‘rtasiga temir stol-stullar qo‘yilgan. Shipga yaqin, deraza o‘rnini bosuvchi kichik darchadan o‘zgina yorug‘lik va toza havo sizmoqda. Omonat mehmonlar – turli yoshdagi besh nafar ayolning barchasi, xuddi yaqinini yo‘qotgan odamlarday tund kayfiyatda, o‘z-o‘zi bilan ovora.



Quyosh kulgan kun

Gulnigorning tergov hibsxonasida o‘tirganiga ham mana ikki haftadan oshdi. Hamxonalari yoshi katta bo‘lganliklari sabab singlisi yo qizi kabi muomalada bo‘lib, daldal berishayotganday bo‘lsalar-da, ko‘ngliga qil sig‘mas, sim krovatda, yelkasini devorga tirab, yoqlarini quchganча o‘tirar, ko‘z oldidan nogiron onasi va hali o‘nga ham to‘lma-gan singlisi sira ketmas edi.

Ko‘zi ilingan mahal, tushida quyuk tuman orasida otasini ko‘rib, “Otajoni!” deb uyg‘onib ketganча, tuni bo‘yi uxlay olmadi. Yoshligini, otasi mashinada uylariga kirib kelishi, erkalab qo‘liga olib, osmonga otib o‘ynagan lahzalari, bir marta Navro‘z bayramida uzzu-kun o‘zi bilan olib yurib, shirinliklar va chiroyli ko‘ylak olib bergani, “Onang senga uka olib keladi”, deganlari, so‘ng singlisi tug‘ilganida otasi o‘zgarib qolganligi birma-bir xayolidan o‘tdi. O‘tgan kunlarini, otasini eslagani sayin yaqinlari sog‘inchi yuragini tinimsiz o‘rtar edi.

Nonushtaga chaqirishganini eshitib-eshitmay, garangsib turganida, yoshi kattaroq bir opa kelib, qo‘lidan ushladi va xona o‘rtasida turgan stol yoniga olib bordi. Stul vazifasini o‘tovchi, polga mahkamlangan o‘tirgichga hamki xayollarini jamlab ola bilmadidi. Ruhياتidagi tushkunlik, muham xayollar, oxirgi ko‘rgani – onasining ikki qo‘liga tirangan holdagi mungli holati, yig‘laganча talpinib qolgan singlisi ko‘z o‘ngidan ketmay turib qoldi.

Nonushta tugab, hamxonalaridan kimdir kitob o‘qishni, yana kimdir qog‘oz-ruchka olib, arizami yoki uyidagilarga xat yozishni boshladi.

Gulnigor qanday turib, krovatiga kelib o‘tirganini bilmaydi. Yana xayollar girdobiga g‘araq bo‘ldi. Endi otasining ichib kelib, uyda onasi bilan janjal qilganlari-yu, keyinchalik ikki-uch kunlab uyga kelmay qo‘ygani, oxirgi marta bundan yetti yilcha burun onasi bilan janjallashib, uydan chiqib ketgani va shu-shu qaytib kelma-ganligini eslab, eti junjikdi, ich-ichidan kelgan bir xo‘rsinish ko‘z yoshlarga do‘nib, yuzlarini yuvdi.

Nochor ahvolda qolganliklari va onasining oyoq og‘rig‘idan azoblanib, har kecha qiynalib chiqishlariga chiday olmay, qarzga pul topolmasdan yurganida, bozorda yosh bir qizchani qulog‘idagi tilla sirg‘aga ko‘zi tushgani, sotib puliga onasiga dori olish niyatida, uning sirg‘asini aldab yechib olgani, keyinchalik tergovchi ishtirokida qizchani ota-onasiga sirg‘ani qaytarib berganidagi holatini eslab, uyatdan issig‘i chiqib ketgan-dek bo‘ldi. Yig‘idan o‘zini to‘xtatolmay, yuzini qo‘llari bilan berkitdi...

So‘ng: “Endi nima qilaman, uch yarim yil qamoqda o‘tirsam, singlim kichkina bo‘lsa, onamga kim qaraydi, men nima qilib qo‘ydim”, degan savollar ich-etini tirnab, sira tinchlik bermay qo‘ydi.

O‘ylana-o‘ylana ko‘zi ilinganini sezmay qoldi.

Tush ko‘ribdi, oftob charaqlab turgan emish. Chiroyli ko‘ylakda uzoqda quchoq ochib turgan onasiga qarab qushday uchib ketayotgan emish, xonadoshlarining qattiqroq gaplashganidan uyg‘onib ketdi. Dastlab, tushi ta’siridan chiqolmay, qayerda ekanligini anglayolmay, bir pas garangsib turdi va xona yon devoridagi, birgina toza havo manbai bo‘lmish kichik darchaning qo‘pol panjarasiga ko‘zi tushib, “uh” tortib yubordi.

Darchaga qarab turib, doim eshik o‘rniga derazani taqillatib chaqirib keladigan, qo‘shni ko‘chada yashovchi, sho‘xdan-sho‘x yigitning hamisha kulib turuvchi ko‘zlarini xayolan tasavvur qildi. Uning “O‘ylanaman, o‘ylanaman, men baribir Gulnigorga uylanaman”, – deb hazillashishini eslab, xayolida “eh, hozir ham mendek jinoyatchi – qamalgan qizga u‘ylanasan-mi? der, o‘zining tuzatib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘ygani, o‘z taqdirini izdan chiqarganligini anglab, yana tushkunlikda, unsiz yig‘lar bo‘ldi.

Oradan biron soat vaqt o‘tib, temir eshik taqillaganidagina fikri bo‘linib, zo‘rg‘a o‘zini yig‘idan to‘xtatdi. Eshik ochilib, nazoratchi kirib keldi va ishchi guruhi a‘zolari suhbatga kelganligini e‘lon qilib, o‘zini chetga oldi.

Barcha xonadoshlari qatori Gulnigor ham tezda o‘rnidan turib, ust-boshini to‘g‘riladi va xonadoshlari qatoriga borib turdi. Xayolidan kelganlar nima der ekan, “nimaga jinoyat qildilaring”, deb uyaltirsa kerak, degan gap o‘tdi va yerga qaragan ko‘yi turib qoldi. Salomlashgach, ular “Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga ko‘ra, Sizlardan xabar olgani keldik, sog‘liklaringiz yaxshimi, nima shikoyatlar bor?” deganida ham xonadoshlaridan biron kishi yurak yutib, javob bermadi.

Shunda, ulardan biri: “Nimaga bu yerda o‘tiribsizlar, kelinglar, gaplashaylik, balki biron yordamimiz tegar, bizdan tortinmanglar”, – deganida beixtiyor boshini ko‘tarib, achinish va mehr bilan qarab turgan otasi tengi ikki birday kishini ko‘rdi.

Yig‘lab yubor-maslik uchun labini tishlab, turib qolganida xonadoshlari-


dan yoshi katta ayol, o‘zini tanishtirib, o‘g‘irlik qilib qo‘yganligini, o‘g‘irlagan narsalarini qaytarib berganligini, lekin jazolanishdan qo‘rqib qochib ketganligini, shu sababli ushlab olib kelib, qamab qo‘yganliklarini, qaramog‘ida uch nafar voyaga yetmagan bolasi va qariya onasi borligini ayta boshladi. Kelganlar tergov tugagan-tugamaganligini, bundan oldin sudlangan-sudlanmaganligini surishtirib, yozib olishdi. Uzoq‘i bilan ikki-uch kunda sud ishingizni ko‘rib chiqadi, eng asosiysi, qilgan qilmishingiz noto‘g‘riligini anglab yetganingiz, nasib bo‘lsa, farzandlaringiz oldiga qaytasiz, – deyishdi.

Xonadoshlar jonlanib, birin-ketin o‘zlarini tanishtirib, sodir etgan qilmishlari haqida gapira boshlashdi... Kelgan kishilardan birining: “Qani, qizim, Sizga nima bo‘ldi, nega bu yerdasiz?”, degan gapidan Gulnigor navbat o‘ziga kelganligini bildi va: “Bir qizchani sirg‘asini aldab olib qo‘ydim”, degan gapni zo‘r-bazo‘r aytdi va ichida “O‘l, bu kuningdan, qo‘ling sinsin, Gulnigor”, deya o‘zini qarg‘ab qo‘ydi.

Oilada necha kishisizlar, nega bunday qildingiz, sud bo‘ldimi, qanday jazo tayinlashdi, degan savollarni eshitib, onasi va o‘n yoshli singlisi borligini, onasining ikki oyog‘i ishlamasligini, sud uy qamog‘i jazosi tayinlaganligini, shundan keyin tuman obodonlashtirish bo‘limiga ishga kirib ishlay boshlaganligini, boshliqlari to‘y qilganida qiziqib o‘tirib qolganligini va tartibni buzib qo‘yganligini, shuning uchun sud bo‘lib, jazoni o‘tash uchun qaytarilganligini amallab tushuntirgan bo‘ldi.

Kelgan kishi: “Onangizga qarovchi biron kishi bormi”, degan savolini berganida, “yo‘q”, deb bosh qimirlatib yig‘ladi. Shunda u kishi: “Mayli, singlim tushkunlikda tushmang, ishingizni o‘rganib chiqaylik, Sizga qanday yordam berishni ko‘rib chiqamiz, erta-indin Sizga ma‘lum qilamiz. Siz hozir o‘tirib, oilaviy ahvolingiz haqida yozib bering, muassasa rahbariyati tegishli tartibda rasmiylashtirib, bizga yetkazadi” – dedi. Shundan keyin mutasaddilar barchaga, umidsizlikka berilish kerak emasligi, eng asosiysi xatoni tushunib yetishda ekanligini aytib, xayrlashib chiqib ketishdi.

Davomi keyingi sonda.



“Sudya ma‘naviyati, odobi va mas‘uliyati” kitobidan

8 8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

Muhabbat SHERALIYEVA,
Sirdaryo viloyatiDaraxt bir joyda
qo'qaradiNasibaxon UMAROVA,
Namangan viloyatiFaxriylar bilan
doimo birga...

O'Z mehnat faoliyatini To'raqo'rg'on tuman partiya qo'mitasida kotibalikdan boshlagan bu ayol o'sha yillarda yuksak mavqega ega bo'lgan partiya organlarida ishlashni emas, yuridik sohani tanladi. Universitetni tugatgach, To'raqo'rg'on tuman sudi sud majlisi kotibi bo'lib ish boshladi. Qator yillar tuman ijroiya qo'mitasida katta huquqshunos-maslahatchi, tuman hokimligining huquqshunos-maslahatchisi vazifalarida samarali mehnat qildi. Qarorlar va boshqa hujjatlarning qonuniyligini ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

1994-yildan boshlab To'raqo'rg'on tuman FHDYo bo'limi mudiri, Namangan viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi, Kosonsoy tuman FHDYo bo'limi mudiri vazifalarida ishladi.

Nasibaxon Umarova hamon hamkasblar orasida. Namangan viloyat faxriylar kengashi raisi o'rmbosari lavozimida sevimli sohasi faxriylari bilan doimo birga, yonma-yon.

Orzigul HATAMOVA,
Navoiy viloyatiAdolat hamisha
shiori bo'ldi

Muhabbat opani Sayxunobodda bilmaydigan, tanimaydigan odam topilmasa kerak. Umrining 35 yilini tuman fuqarolik hollari dalolatnomalarini yozish bo'limi mudirligiga bag'ishlagan bu ayolning tarjimai holi, mehnat faoliyati oddiy. 1949-yilda Sayxunobod tumanida tug'ilgan. Bolaligi urushdan keyingi mashaqqatli yillarga to'g'ri kelgan. Sirdaryo davlat pedagogika institutini tugatgach, 1971-yildan 2005-yilgacha Sayxunobod tuman FHDYo bo'limi mudirasi lavozimida ishlagan.

Muhabbat Sheraliyeva mehnat faoliyati davomida halol mehnat qildi, odamlarning quvonchu g'amlariga sherik bo'ldi.

Ko'p yillik xizmatlari bilan elda hurmat, davlatimizda qadr topgan bu ayol 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Qadri baland,
qalbi go'zal opa-
singillar,

bayramingiz muborak bo'lsin!



AYOLLARNING davlat va jamiyatdagi roli, oilada tutgan o'rni beqiyos. Ular oilamiz chirog'i, farzandlarimiz mehriboni, davlatimiz va jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy muhiti sog'lomligi, hayotimiz go'zalligi, qalbimiz nurafshonligi uchun mas'ul va fidoyi shaxs. Bugun 8 Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida umrini ham davlat ishiga, ham jamiyat rivojiga, ham oila farovonligiga, ham farzandlar kamoliga bag'ishlagan adliya tizimi fidoyilaridan ayrimlarini gazeta orqali yo'qlagimiz keldi.

ORZIGUL Hatamova Qizilqum kengliklari saodatini his etgan, cho'l odamlaridagi ma-tonatni o'z hayotida kashf etgan bir so'zli, o'ktam qoraqalpog' ayoli.

Konimex tuman prokuraturasida oddiy mashinistka kotiba bo'lib ish boshlagan Orzigul Hatamovaning orzulari cho'l qizini yuksakka – Toshkent davlat universitetiga yetakladi. Oliy ta'limni tugatib, Buxoro viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limida yuriskonsult bo'lib ishladi. Konimex tuman huquqiy maslahatxona mudiri vazifasida ishlagan yillarida turli muammolarga duch kelgan fuqarolarga huquqiy ko'mak berdi, ovuldagi zamondoshlarining haq-huquqlarini himoya qilishga o'z hissasini qo'shdi.

Orzigul opa uzoq yillar Konimex tuman xalq sudining raisi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Xalqning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni o'zining muqaddas burchi deb hisobladi.

1987-yildan 2009-yilgacha Konimex tuman davlat notarial idorasi notariusi bo'lib ishlagan davrida ham odamlar orasida bo'ldi. Har qachon har yerda ADOLAT shiori bo'ldi.

Zuhra AZIMOVA,
Toshkent shahriYuksak
sharafga loyiq
ayol

HAR bir kasbning o'z mashaqqati, o'z mas'uliyati bor. Huquqshunoslik sharaflari va shu bilan birga o'ta murakkab soha. Uning mas'uliyatini his etgan, qiyinchiliklariga chidagan insongina baxt topadi, obro' orttiradi. Zuhra Azimova ham o'z kasbini sevadigan, unga sodiq qolgan, shu kasb ortidan yuksak sharaf va qadr topgan ayol.

Toshkent davlat universitetini tugatib, o'z mehnat faoliyatini Adliya vazirligi notariat bo'limi maslahatchisi lavozimida boshlagan Z. Azimova uzoq yillar Adliya vazirligida turli vazifalarda xizmat qildi. Keyinchalik Toshkent viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rmbosari, birinchi o'rmbosari, Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rmbosari lavozimlarida samarali faoliyat olib boradi.

Birinchi darajali adliya maslahatchisi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan soha fidoyisi umrining salkam qirq yilini mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga, fuqarolarning huquqiy madaniyati va bilimini oshirishga bag'ishladi.

Zuhra Muzaffarovna uchun o'zini hurmat qilgan inson qonunni, albat, hurmat qilishi shart, degan aqida hayotiy falsafaga ega.

"Inson va qonun" muxbiri
Marusa HOSILOVA tayyorladi

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy xabarot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

1119 0110-7847



9 772018 7847008

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Eldor Maxkamov
Furqat Tojiyev
Sevara O'rmbosarova
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Bosh
muharir
Asiddin
ALIMARDON

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mualifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3890
Buyurtma – 714

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirindi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5